

NIKOH TO‘YIGA OID ETNOGRAFIKMLARNING AREAL TARQALISHI HAQIDA

Mavjuda Suvanova

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)
Email: mavjuda2710@mail.ru

ANNOTATSIYA

Nikoh to‘yi xalqimizning tarixiy rivojlanishi jarayonida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan milliy ma‘naviy qadriyatlarimizdan biridir. Nikoh to‘yi qarindosh-urug‘lar, do‘stlar, tanish-bilishlar, qo‘shnilar ishtirokida o‘tkaziladi. To‘y dasturxonini turli noz-ne‘matlar bilan bezatiladi.

АННОТАЦИЯ

Обряд бракосочетания – одна из наших национальных духовных ценностей, отточенных в ходе исторического развития нашего народа и дошедших до нас. Свадьба проводится в присутствии родственников, друзей, знакомых и соседей. Свадебный стол украшают различными деликатесами.

ABSTRACT

The marriage ceremony is one of our national spiritual values that have been refined in the course of the historical development of our nation and have reached us. The wedding is held in the presence of relatives, friends, acquaintances, and neighbors. The wedding table is decorated with various delicacies.

Nikoh – erkak va ayolning turmush qurishini rasmiylashtirish shakli, usuli[1]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham bu so‘z o‘z semantik mazmunini yo‘qotgani yo‘q. Hozirda nikoh erkak va ayolning qonuniy oila qurishini anglatadi. Ikki yoshga nikoh o‘qilayotganda kuyovning yaqin qarindoshlaridan bo‘lgan erkak kishi vakyl ota ishtirok etadi. Samar.v. Paxtachi shevalarida oldbga chbqqan ota deyiladi. Qoraqal. o‘zbek shevalarida nikoh marosimida yigitga barcha narsalarni o‘rgatib boruvchi kishiga jbgbt og‘asb, qirchoq shevalarida o‘kulata//okylota[2] leksemasi qo‘llaniladi. Bu leksema Qashq. shevalarida aqlota, Surxan. vəkllatə//vəklətə//pədərvəkyl//vəkylsorag‘ych leksemasi bilan ifodalanadi [3].

Nikoh to‘ylariga oid etnografizmlarni quyidagi qismlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1) To‘yga qadar marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: sovchilik, non sindirish, fotiha, oq yirtish, maslahat oshi, to‘y eltish, oqsoqolga borish, qizlar yig‘ini, hina qo‘yish (xostgori, nonshikanon, xayoshi, oshxurakon, fotiha, parchaburron, maslahat oshi, to‘ybaron, oqsoqolravi, dugonatalbon, hinobandon). Kelin-kuyovni katta to‘yga tayyorlash: soch o‘rish, qosh terish, kiyim kiydirish va boshq.;

2) To‘y paytida o‘tkaziladigan marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: nikoh, kuyovning kelishi, to‘y ziyofati, kelinni kuyovning uyiga kuzatish, yuzko‘rar va boshqalar;

3) To‘ydan so‘nggi marosimlarga oid etnografizmlar: joy solish, joy yig‘ish, kuyovcharlar, kelincharlar.

To‘yga qadar marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: sovchi – turmush quradigan yigit va qizning ota-onalari qarindosh urug‘lari bilan yoshlarning oila qurishlari borasida kengashuvchi, oilaning a‘zosi yoki qarindosh urug‘laridan biri bo‘lgan shaxs. Surxan. shevasida **djo:chi//yovchi**. Bu o‘zbek tilli hududlarning barchasida keng tarqalgan etnografizmdir.

Non sindirish yoki ushatish – qizni unashtirish, nikohga kiruvchilarning munosabatlariga rozilik berish ma‘nosini ifodalaydi. Bu marosim O‘zbekiston hududining barcha viloyatlarida bir xil tarzda o‘tkaziladi. Quda tomonga (kelinnikiga) 3-5 kishi (kuyovning yaqin kishilari) patir non, holva va boshqa shirinliklar bilan boriladi. Ushbu marosimda ikkala tarafdin qudalar ishtirokida ustma-ust turgan butun nonlar o‘rtasidan ikkiga bo‘lib ushatiladi va har ikkala tarafga holva hamda shirinliklar birdek taqsimlanadi. Non sindirilgandan keyin **oqlak** beriladi. Har ikkala tomon ham yaqinlariga yoshlar unashtirilganini bildirish uchun non va shirinliklardan tarqatishadi. Tosh., Samar., Nav., Bux. viloyatlarida yaqinlarining qizlariga, ishxonalarga, turmushga chiqmagan dugonalariga holva, shirinliklar, chaq-chuqlar tarqatiladi. Bu marosimning nomi Nav., Bux. **nonshindirish** deyilsa, Toshk., Samar. **romolberdъ**, Qashq. **patir shindъ**, Surxan. **nanshindirish//atashtirish**, Qoraqal. **nan shindiru** nomi bilan ifodalanadi. Bunday komponentlarning qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan so‘zning ma‘nosi komponentlardan biri anglatgan ma‘noga aloqador bo‘ladi.

Fotiha to‘yi. Qizni unashtirish fotiha to‘yi marosimi bilan yakunlanib, unashtirilgan qiz – fotihali yoki boshi bog‘liq deb ataladi. Surxan.da ushbu etnografizm **patiyotoy** deb nomlanib, fotiha to‘yi kuni bo‘yniga ro‘mol bog‘lab olib boriladigan qo‘chqor – “**eshak ochar**” nomi bilan yuritilib, quda tomon katta to‘y taraddudini ko‘radi. Jiz. viloyatida kelina “**yoqlov**” yuboriladi (jonliq – qo‘chqor, guruch va boshqa mahsulotlar yuboriladi.).

To‘y muddati cho‘zilsa, qudalar qizga har bayram va bozor kunlari bayramlik, bozorlik yuborib turishadi. To‘y kuni ma‘lum bo‘lgach, ikki tomon ham to‘y taraddudini ko‘ra boshlaydi. Bayramlik quda tomondan keladigan shirinliklar, oziq-ovqatlar va sarpolarni anglatadi.

Qiz uyida ko‘rpa-to‘shak tikish uchun hashar uyushtiriladi. Bu odat “**көрпә бәчәр**” deb yuritilib, qarindoshlar bergan narsalar **qo‘shon** deb nomlangan. Xor.da bu “**әдәт қәшәнт**” deb nomlanadi.

To‘y kunidan bir kun oldin qiz uyiga to‘ylik yuboriladi. Qiz tomon esa kuyov uchun sarpo, patir, qand-qurs solingan dasturxon jo‘natadi. Ushbu marosimda ikkala taraf vakillaridan 10-15 kishi ishtirok etadi. Ular to‘yni o‘tkazishni kelishib oladilar. To‘yda qudalar bir-birlariga, qarindosh urug‘larga **sarpoy** qilishadi. Bu o‘zbek xalqining azaldan qo‘llanilib kelingan urf-odatlaridan biri bo‘lib, o‘rganilayotgan barcha hududlarda keng tarqalgan. Bu **sarpoy** leksemasi “Alpomish” dostonida ham uchraydi: “Qorajon: enamiz bizni katta yerdan uylantiribdi. Enamning bosh-oyoq sarpoyini qilib yuboribdi – ena bo‘ri bo‘lganingdan gapir! – deb turibdi” [4].

Həyʼllik/həyitlig – hayit arafasida qizga yuboriladigan kiyim-kechak, sovg‘a-salomlar. Hozirgi kunda bayramlarda ham hayitlik berilyapti.

Idish//qəpkəti – fотиha to‘ydan keyin qiz tomondan kuyovga yuboriladigan bir qo‘y, kiyim-kechak va shirinliklar (60 ta non, 4 ta qatlama, kuyovga sarpo, ota-onasiga kiyimliklar, 10 dona dastro‘mol, belbog‘, 10 dona do‘ppi, bir yashik konfet, bitta qo‘y va b.). Hozirgi kunda qizning ota-onasi televizor, sovitkich, kir yuvish mashinasi, muzlatkich, gaz plitasi ham olib borishyapti.

Qiz bazmi. Bu marosimning o‘tkazilishi ixtiyoriy bo‘lib, nikoh to‘yidan oldin qizning uyida o‘tkaziladi. Qiz bazmiga kelinning dugonalari, qarindoshlar, qo‘shnilar taklif qilinadi. Qizning ota-onasi uyida oila a‘zolari bilan xayrlashishi, yangi oilada hurmatli, izzatli kelin bo‘lishi uchun yig‘ilganlar tomonidan yaxshi tilaklar bildiriladi. Bu urf-odatlar o‘zbek tilli hududlarning barcha sheva vakillari turmush tarzida mavjud bo‘lib, Bux., Samar., Nav. Karmana tum. **qʻz bazmʻ**, Nav. Konimex, Nurota tum. **qiz toyi**, Qarsh. **qʻzlar davrasʻ**, Xor. **qʻzlar yʻgʻʻnʻ**, Qoraqal. shevalarida **qʻz yʻgʻʻnʻ//qʻz chaqʻrʻshma//qʻz chaqʻrʻq** kabi leksemalar bilan ifodalanadi va o‘tkaziladi. Bu marosimning o‘tkazilishi natijasida ota-onaga bo‘lgan qadr-qimmat, hurmat, ota-onani e‘zozlash kabi ma‘naviy qadriyatlar yoshlar ongiga singdiriladi.

To‘y paytida o‘tkaziladigan marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar:
Kuyov navkar. To‘y kuni ko‘pgina hududlarda dori bilan, ba‘zi joylarda kuyov navkarlar (kuyov va do‘stlari) kelinnikiga karnay-surnaylar sadosi ostida borishadi. Kelinnikida kuyov navkarlar mehmon qilinadi. O‘sha yerda juda ko‘plab hududlarda kuyovga to‘n kiydirish marosimlari o‘tkaziladi. Samar., Bux., Nav. viloyatlarida

kuyovnikiga kuyov sarpo jo'natiladi. Jiz. viloyatida bu marosimdan keyin kelin va kuyovning nikohlari domla-imom tomonidan o'qitiladi. Mazkur hududda kuyov navkarlar dasturxondan turgandan keyin kelin uyidan yaxshi niyat bilan chinni idishlardan olib ketadilar.

Ma'lumki, to'yga uzoq-yaqindan kelib mehmon bo'lib tunab qolishadi. Bunday paytda ular qo'ni-qo'shnilarga tarqatilgan. Bu odat **mehmon olsh** deb atalib, o'g'uz va qipchoqlarda ham, qo'ng'iroq va qarluqlarda ham keng tarqalgan. Mazkur odat jamoa-urug'chilik davridan qolgan bo'lib, bu davrda bir qishloq yagona oiladan tashkil topgan. Bu odatlar hozir ham bor bo'lib, Nav. Nurota, Navbahor, Xatirchi tum.; Samar. Paxtachi, Narpay va boshqa ko'pgina tumanlarida to'yga kelgan mehmonga hurmat ko'rsatilib, qo'ni qo'shnilarnikiga **qonbuqqa** (mehmonga) uzatilgan. **Qonuq** – **mehmon**. Yozma yodgorliklarda ham qonuq so'zi qo'llanilgan. Masalan, bir qarib man manqa bu kun kecha qonuqi barinlar, bu eshda jamajin. Men bir yo'lovchiman, menga bu kecha mehmonlikka joy beringlar, shu yerda qolayin [5].

Poyondoq. Kuyov va kelinning oyoqlari ostiga to'yda poyondoq tashlash o'zbek xalqining azaldan foydalanib kelingan urf-odatlaridan biridir. Bu marosim o'zbek tilli hududlarda farqlanadi va boshqa hududlarda uchramaydi. Tosh.v.da kelinni olib ketishga kelgan kuyovning oyog'i ostiga tashlanadi. Marosim davom ettirilib, kelinni to'yxonaga olib kirishda kelin va kuyovning oyog'i ostiga tashlanadi. Jiz.da nikoh bazmidan keyin kuyovning do'stlari kelinning yaqin qarindoshlari bo'lgan yigitlar bilan kuyovning nikoh marosimidan chiqishini ostonada kutib turadilar. Yoshi ulug' keksalar poyondoq uchun tayyorlab qo'yilgan atlas matoni kuyov oyoqlari poyiga to'shaydilar. Kuyov o'ng oyog'ini bosgandan keyin uni olib kuyov va kelin tomondan poyondoq tortishga shaylanib turgan yigitlarga oshirishadi. Shundan poyondoq marosimi paytida qo'lga kiritgan kiyimlarini yaxshi niyatlar bilan olib ketadilar. Bu mato bo'laklaridan ayollar ro'molcha, tumor tikadilar yoki kelin-kuyovlarga atab tikiladigan ko'rpa-yostiqlarga quroq sifatida foydalanishadi. Bux., Nav., Samar. **poyondoq**, Qashq. **poyondoz**, Surxan. **payondoz**, Xor. **pəndəz**, Qoraqal. **pyandoz** deb nomlanadi.

“Ololmaysan marosimi” to'y bazmi tugagandan keyin o'tkaziladi. Jizzax viloyati an'anaviy to'ylarida o'tkaziladigan odatlardan biri. To'y bazmi tugagandan so'ng kelinni yangalari va uzatib borgan qarindosh ayollar chimildiqqa kirgizishga hozirlangan milliy libosni kiyintiradilar va xonaning chimildiq ro'parasidagi burchagida stulga o'tkazib, uni to'sib turishadi. Shundan keyin kuyovni chopon bilan boshini berkitgan holda chimildiqqa olib kirishadi. Kuyov tomon bir tarafda, kelin tomon bir tarafda: “Ololmaysiz, xo-xo ololmaysiz”, “Ololamiza, ololamiz” deya qo'shiq aytib, raqsga tushishadi. Kuyov tomonidagi yangalardan epchillari kelin

o‘tirgan joyga kelib, chaqqonlik bilan uni boshini qashib olishlari lozim bo‘ladi. Kuyov kelin tomonga kelib, kelinni chimildiqqa o‘lanlar sadosi bilan olib kirish boshlanadi. Kelin kuyov bir-biriga yetgan joyda “**эъқ баст**” marosimi o‘tkaziladi. Bunday paytda odatda kuyovlar kelinning oyog‘ini astagina bosib qo‘yishadi va chimildiqqa olib kirishadi. Bux. va Nav. viloyatlarida bu marosim kuyov kelinni olib kelish uchun borganda, chimildiqqa kirishadi. Shunda urf-odatlariga ko‘ra “**эъқ баст**” marosimi bo‘ladi [6].

Chimildiqda ko‘zguga boqish marosimlari. Kelin chimildiqqa kirgandan keyin yangi sotib olingan, lekin hali hech kim boqmagan, o‘rab qo‘yilgan ko‘zguni yoshi keksa momolardan biri ochib kelin-kuyovga tutadi. “Hayotlaring oynadek tiniq bo‘lsin, ko‘z ochib ko‘rganing bilan qo‘sha qaringlar” deya, kelin-kuyov atrofida yoqilgan sham aylantiriladi, so‘ngra isiriq tutatilib, ularga novvot choy ichiriladi. Chimildiq atrofida o‘tirgan barcha ayollar kelin-kuyov ichgan novvot choydan yaxshi niyatlar bilan ichadilar. Ba‘zi hududlarda, Samar., Nav. viloyatlarida bu marosim davom ettirilib, kuyovning to‘ni ichiga tuxum solish marosimi o‘tkaziladi.

Shu bois Bux. va Samar. tojiklari lahjasi etnografik leksikasida nikoh qoidalarini bajarish (ahdi nikoh), sharbat ichirish (sharbat dodan), nikoh paytida kelin-kuyovni gulxan yo olov atrofida aylantirish, qirq kun davomida yangi kelin-kuyovning uyida chiroq yoqish kabi marosimlarni ifodalovchi leksik birliklar faol qo‘llaniladi. Unashtirishning eng yuqori nuqtasi kelin to‘yidir.

To‘y marosimi hamisha shodlik, xurramlik, yoshlik, go‘zallik, kelajakka yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o‘tkaziladigan ajoyib oilaviy bayramdir. G‘oyat go‘zal bo‘lgan bu marosim barcha xildagi xalq san‘ati, ashula, raqs bilan o‘tkaziladi. To‘y qo‘shiqlarida shodlik, g‘am, muhabbat, firoq, samimiy ishq, shuningdek, inson hayotining boshqa jihatlari aks ettirilgan. Bugungi kunda eski an‘anaviy qo‘shiqlar, masalan “Ho‘ bale!”, “Salomnoma”, “Ho Layli”, “To‘ylar muborak”, “Yor-yor” zamonaviy yangi usul bilan kuylanadi. Ma‘lum bo‘lganidek, to‘y-hasham marosimlari maxsus dramaviy lahzalarga ega bo‘lib, folklor shaklida yo xalq adabiyoti shaklida maxsus etnografik so‘zlar bilan lahja va shevalarda qamrab olingan. Jumladan, bu jihatlar she‘r-u qo‘shiqchilikda, masxarabozlikda, musiqa, askiyachilik, she‘rxonlik va turli o‘yinlarda to‘yning dramaviy xususiyatini aks ettiradi. To‘y qo‘shiqlarini ijro etishda kelin-kuyov oilasi, qarindoshlari asosiy rol ni o‘ynaydilar.

Padaroshi – atama ikki qismdan tuzilgan: padar+osh. Padar – fors-tojikchada ota ma‘nosini anglatadi; osh esa asosan palov ma‘nosida qo‘llaniladi. Padaroshi nikoh to‘yida kuyovning uyida erta saharda osh berish marosimini anglatadi. Bux. **nahorgi osh**, Nav. **қъз ошъ**, Samar. **padaroshi**, Qashq. **ота келдъ** kabi leksemalar bilan ifodalanadi va o‘tkaziladi. Xor. va Qoraqal. hududlarida bu marosim o‘tkazilmaydi.

To‘ydan keyingi marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar to‘y kunining ertasiga kelin salomi bilan boshlanib ketadigan marosim nomlaridan iborat. Masalan, kelin salom, charlar, challadi yoki kelin chaqirdi, yuz ko‘rar kabi.

Kelin salom – kelinni to‘yning ertasiga qarindoshlarga tanishtirishga bag‘ishlangan tantananing nomi. Ba’zi hududlarda to‘y ertasiga, ba’zi hududlarda to‘y kuni kelin salom marosimi o‘tkaziladi. Xalqimizga xos bu qadimiy udum O‘zbekistonning har bir viloyatida, har bir vohasida o‘ziga xos tarzda, o‘zgacha bir shukuh bilan o‘tkaziladi. Hammasi ham o‘zida millatimizga xos estetik qarashlarni aks ettiradi. Poytaxtimiz Toshkent shahrida kelinlar boshlariga yopinchiq yopgan holda egilib salom beradilar, Samarqandda esa salom aytilgan vaqtda qo‘llariga ilingan ro‘molcha bilan yuzini yopadi. Qashqadaryo vohasida esa yon tomonga egilgan holatda salom beradi. Milliy liboslarda hayo bilan bosh egib turgan kelinlarning salom berish uchun qilayotgan bu harakatlari ushbu marosimga kelgan barchani maftun etadi. Jamiyatda kelajagiga barqaror bir zamin tayyorlashni istagan yoshlar ota-onaga, qo‘ni-qo‘shnilarga, yor-birodarlarga, qarindosh-urug‘larga hurmat bajo aylagan holda marosim orqali o‘z ehtiromlarini ko‘rsatadilar. Hurmat bajo aylab salom qilayotgan kelinga nomi aytilgan har bir xayrixoh kishi yosh oilaning mustahkamligi va barqarorligi uchun qo‘llaridan kelgunicha o‘z hissalarini qo‘shadilar. Bu ham o‘zbek xalqining jipsligini, o‘zaro mehr-oqibatligini namoyon etadi.

Kelin salom Bux. **yor-yor**, Nav., Samar., Toshk. **kelin salom, padaroshi**, Qashq. **ota keldъ**, Xor. **kelin ochdi**, Qoraqal. shevalarida **yuz ochdi//kelin salem//bet ashar** kabi leksemalar bilan ifodalanadi. Bu kabi etnografizmlar hozirgi kunda yoshlar ong-u shuuriga nurday singib, ularda ezgu, umuminsoniy tuyg‘ularni tarbiyalamoqda.

Charlar, challadi yoki kelin chaqirdi – to‘ydan keyin kelin bilan tanishish maqsadida kuyovning qarindoshlari tomonidan tashkil etiladigan ziyofat, tantana bo‘lib, bunda kelin uchun tansiq taomlar pishiriladi, charlar o‘tkazuvchi kishi tomonidan kelinga sovg‘alar taqdim qilinadi.

Challadi – aslida chorladi. Ushbu marosim nomi Bux. **challadi//challandi**, Nav., Samar. **challari**, Qashq. **challar**, Toshk. **charlar**, Surxan. **chaqirdi**, Xor. **qàde toy**, Qoraqal. shevalarida **el qàde toy** shakllarida uchraydi. To‘ydan keyin o‘tkaziladigan marosim bo‘lib, kelin chaqirdi, kuyov chaqirdi, qiz chaqirdi, quda chaqirdi kabi bir qancha ko‘rinishlari bor. Kelin chaqirdida yangi tushgan kelinchakning chillasi chiqqach, o‘zining va kuyovning yaqin qarindoshlari uylariga chaqiradi. Bundan ko‘zlangan maqsad kelin-kuyovga hurmat ko‘rsatish bilan birga, kuyov taraf uchun kelin bilan yaqindan tanishishdir. Kelin chaqirilgan xonadonga kirguncha uy egalariga, uyning ostonasiga ta’zim qilib kiradi. Kelin-kuyovga sovg‘alar in’om etiladi. Kuyov chaqirdi odatda kelinning ota-onasi, yaqin qarindoshlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sarshuyon – fors-tojik tilida sar – bosh, shuyon – yuvmoq soʻzlaridan olingan. Nikoh toʻyidan yetti yoki oʻn kun oʻtib kuyovning uyida boʻlib oʻtuvchi marosim. Bu soʻz tojik tilli hududlarda keng ishlatiladi.

Raxzanon – atama rax va zanon qismlaridan iborat boʻlib har ikkalasi ham fors tiliga mansub. Rax (raxt) – koʻrpa-koʻrpachalarning ustma-ust terilgani; zanon – urmoq, termiq. Toʻyda koʻrpa-koʻrpachalarning ustma-ust terilishi bilan bogʻliq marosim.

Hazrat Mir Alisher Navoiy asarlarida ham oilaviy-maishiy etnografizmlar faol qoʻllanilgan boʻlib, Navoiy davri turkiy xalqlari til birliklari, ularning maishiy turmushi borasida mulohaza yuritish bilan bir qatorda oʻzbek tilida faol qoʻllanuvchi nikoh, taloq, aza, motam kabi etnografizmlarning lisoniy xususiyatlari va semantikasi borasida tadqiqot olib borishga hamda tilimizda mavjud soʻzlarning mazmuni borasida tasavvurga ega boʻlish imkonini ham beradi.

Alisher Navoiy “Gʻaroyib us-sigʻar” devonida oʻzining “raz qizi” – ilohiy ishq sharobga nikoh qilinganini quyidagicha bayon qiladi:

Ne erdi maykada gavgʻosi, **raz qizin** goʻyo

Bu shom qildi Navoiyga piri dayr **nikoh**. (GʻS, 22-b.)

Mazkur bayt talqinida nikoh komil pirlar tomonidan qizning yigitga bir umrga jufti halollikka berilishi maʼnosini anglatadi. Navoiy “Badoyeʼ ul-vasat” devonida ham nikoh etnografizmining antonimini qoʻllagan:

Navoiy aylab edi garchi **raz qizini taloq**,

Halol boʻlsa ham ul qizni olgʻusi bu kuyov. (BV, 517-b.)

Yuqoridagi baytda hazrat Navoiy musulmonlar maishiy hayotida keng ommalashgan nikoh etnografizmining antonimi – taloq etnografizmini ham qoʻllaganki, bu oʻzbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida qarama-qarshi maʼnoli ikki etnografizmning semantik mohiyati oʻzgarmaganligidan dalolat beradi. Taloq soʻzi ham etimologik jihatdan arab tiliga mansubdir. Taloq etnografizmi oʻzbek tili leksikasida taxminan VIII asrlardan hozirga qadar qoʻllanilib kelingan. Faqat XX asrning 80-yillaridan keyin mazkur atamaning oʻzbekcha ekvivalenti qoʻllanila boshladi. Taloq erkak kishi tomonidan oʻz jufti haloli boʻlib yashab kelayotgan ayol bilan oʻrtasida hal qilib boʻlmas nizolar sodir boʻlganda uch marta aytiladi va shu soʻzning uch bor takrorlanishi oilaviy nikohni bekor qilinganini anglatadi.

Oʻzbek lingvomadaniyatida toʻy marosimi shunchalar chuqur oʻrin olganki, bu xalq ogʻzaki ijodida ham yorqin kuzatiladi. Oʻzbek tilida toʻy qoʻshiqlari, yaʼni laparlar, yor-yor bilan bir qatorda maqollar ham yaratilgan. Xalqimizda faol qoʻllanuvchi “Toʻydan oldin nogʻora qoqma”, “Toʻyga borsang, toʻyib bor”, “Toʻyga borsang, toʻyib bor, Toʻrqa toʻning kiyib bor”, “Toʻy oshi – toʻpolon oshi”, “Toʻyning

boshi – boshlanguncha”, “Qo‘y semizi – qo‘ychidan, To‘y tamizi – to‘ychidan”, “To‘y kimniki – tegishliniki”, “To‘y – Xudoning xazinasini”, “To‘y ustiga to‘y bo‘lsin, Balog‘azo yo‘q bo‘lsin” [7] kabi o‘nlab maqollar va ularning variantlarida o‘zbek xalqiga xos to‘y bilan bog‘liq ezgu an‘analar, urf-odatlar, xususan, yaqinlarga, qarindoshlarga duo qilib to‘y qilishni tilash, to‘yning ezgulik, to‘kinlik, tinchlik, hamjihatlik, yaqinlik, o‘yin-kulgi, xursandchilik, mehmondo‘stlik ramzi sifatida talqin qilinishi ularning haqiqiy lingvomadaniy birlik ekanligidan dalolat beradi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, o‘zbek xalqiga xos to‘y bilan bog‘liq etnografizmlar, antroponimlar, maqol va matallari shu qadimiy xalqqa xos bolajonlik, mehmondo‘stlik, elparvarlik, saxovatpeshalik va halolikka asoslangan milliy hamda diniy urf-odatlarini, marosimlari haqidagi lisoniy, madaniy axborotlarni ifodalash barobarida ularning davrlardan davrlarga, avlodlardan avlodlarga o‘tishini, bardavomligini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 49.
2. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тюркского XII-XIII вв. – Москва, 1963. – С. 212.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik, 3-jild. – Toshkent, 2006. – B. 38.
4. O‘zbek ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent, 1972. – B. 472.
5. Mirzayev N. O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1991. – B. 37.
6. file:///C:/Users/User/Desktop/urf-odat-va-an'analar.html
7. Shomaqsudov Sh., Shorahimov Sh. Ma‘nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – B. 344–345.